

YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV OMILLARI VA SABABLARI

Saidova Mohinur

Buxoro davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili fakulteti

6-4 Uzb21 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada internetning bugungi hayotimizdagi o'rnini va undan foydalanish tartiblari xususida so'z yuritilgan. Maqolada bugungi kunda virtual olam ta'sirini kuchayishi, shaxsdagi internet va kompyuter o'yinlariga tobeklikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari borasida fikr yuritiladi. Virtual olamning salbiy hamda ijobiy tomonlari chuqur tahlil qilinib, misollar orqali dalillangan. Intimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Internet, jamiyat, platforma, muloqot, internet o'yinlari, zamon, Telegram, Facebook, tobeklik.

Internet - fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolutsiyasining hosilasi hisoblanadi. Internet – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog'i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik, ya'ni ongimizga mavhum bo'lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma'lumot beruvchi axbarot manbaidir. Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo'lgan ehtiyoj ham kundan-kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqqa aylanib ulgurdi. Internet zamonaviy insonning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylandi. Internet orqali hayotning barcha sohalarida deyarli cheksiz imkoniyatlar mavjudligi hech birimizga sir emas.

Zamonaviy dunyoda hayotni aloqasiz, xususan, kompyuter texnologiyalaridan foydalanmagan holda tasavvur etish qiyin. Kerakli ma'lumotlarni olish, kunlik yangiliklardan xabardor bo'lish va mustaqil yuksalish imkonini beruvchi va asosiysi yengil hayot rejimida ishlovchi ulkan platforma bu o'z-o'zidan internet. Allaqachon jamiyat a'zolarining fikr va e'tiborini o'ziga torta bilgan internetning kashf etilishi insoniyat hayotida ulkan o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'lmoqda. Yer yuzida yetti milliarddan ortiq inson bo'lsa, shundan qariyb uch milliard aholi internetdan bevosita foydalanadi.

So'ngi yillardagi tadqiqotlar esa internet tarmog'idagi eng samarali muloqot usullari va vositalarini aniqlash imkonini bermoqda. Hozirda jadal rivojlanish jarayonida insonlar orasida asosiy muloqot turi verbal-nutq bo'lib, u nutqda amalga oshadigan til elementlaridan tashkil topgan bo'ladi. Elektron aloqa vositasi sifatida virtual dialogning mavjudligi ("chat"(suhbat) rejimidagi dialog)og'zaki va yozma nutqning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi savolni ko'ndalang qo'yadi. Nutqiy

muloqotning ikkala turi ham axbarot tashuvchi tipiga qarab ajralib turadi va o'ziga xos xususiyatlarga ega, biroq chat aloqasi og'zaki-yozma birikma bilan tavsiflanadi.

Ta'kidlash kerakki, kompyuter yoki internet orqali muloqot bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, u bilvosita texnika vositalari orqali muloqot, ikkinchidan, ommaviy xarakterga ega, son jihatidan katta auditoriyani birlashtiradi (boshqa holatlar bilan taqqoslanmaydigan holda). Uchinchidan, u o'zaro yo'naltirilgan, chunki ko'p hollarda teskari muloqot holati ham mavjud bo'ladi. Shu bilan birga, bunday muloqot turlaridan biri – bu nafaqat axbarot tarqatish jarayoni, balki ishontirish, ta'sir ko'rsatish jarayoni hamdir. Bu jarayon ijtimoiy xarakter kasb etadi, chunki tarqatiladigan axborot ma'naviy, axloqiy va boshqa qadriyatlar va normalar bilan birga muayyan ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini o'zida aks ettiradi. Internet faolligi, shuningdek, nomi bilan tanilgan veb-faollik, internetdagi faollik, raqamli tashviqot, raqamli faollik, targ'ibot kabi elektron aloqa texnologiyalaridan foydalanish ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta orqali tezroq va samaraliroq muloqotni ta'minlash, muayyan ma'lumotlarni katta va aniq auditoriyaga yetkazish hamda muvofiqlashtirish. Internet texnologiyalar har xil maqsadlarda ko'ra ishlatiladi. Jumladan, mablag' orttirish, har xil ma'lumotlarni keng jamoatchilik ommalariga yetkazish, tanilish va shu kabilar. Bunday paytda ba'zi hollarda internet tomonidan insonga ma'naviy zarar yetkazish kabi vaziyatlarga ham olib kelishi mumkin. Ma'naviy zarar fuqaro va tashkilotlarning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitadigan, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar tarqatish, fuqaroning hayotiga va sog'ligiga zarar yetkazish va boshqa holatlar.

Internet bizning hayotimizda muhim rol o'ynaydi. Biroq uruch kurmaksiz bo'lmaganidek internetning ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Metaforik o'xshatish sifatida buni oshxona jihoziga qiyoslash mumkin. Agarda siz xohlasangiz oshxona pichog'i yordamida yo lazzatli taomlar tayyorlashingiz mumkin, yoki odam o'ldirishingiz, har xil qing'ir ishlarga qo'l urishingiz mumkin. Internet ham xuddi shunday. Tanlov o'z qo'lingizda. Shu vaziyatga yana bir misol qilib pista iste'mol qilishni oladigan bo'lsak, siz uning mag'zini qo'lingiz bilan ajratib yesangiz ham zararli mikroblardan, ham ora-sira uchrab turadigan qurtlagan mag'izdan xalos bo'lasiz. Uni ochofatlarcha iste'mol qilish orqali esa ham kasallikka chalinishingiz, ham zararli mahsulotni yeb yuborishingiz hech gapmas. Internetdan ham asl maqsadni aniq bilgan holda, keraksiz va sarm-hayosiz, vaqtni behuda o'g'irlovchi saytlardan holi ravishda foydalanish faqat foyda keltiradi.

Asl mavzudan chetlashmagan holda internetning hayotimizda uchraydigan ijobiy va salbiy taraflari haqida aytib o'tmoqchiman. Keling, oldin internetning foydali jihatlari to'g'risida mulohaza yuritsak.

Deylikki, siz xorijiy tillarni mukammal o'rganib, chet elga ta'lim olish yoki ishlash uchun bormoqchisiz. Buning uchun sizga malakali o'qituvchi kerak, ammo

sizda kurslarga qatnash uchun vaqt yo'q yoki moddiy tomondan muammolar mavjud. Bunday paytda siz uchun eng qulay imkoniyat bu internet orqali onlayn darslarga qatnashish va o'zingizga kerakli ma'lumotlarni olish. Bu yo'l orqali siz ham vaqtingizni, ham naqtingizni tejashingiz mumkin.

Aytmaylik, sizga hech qanday bilim va darslar kerak emas, siz barcha bilimlarni egallab bo'lgansiz. Bunday paytda siz internet orqali ommaga bilim ulashishingiz mumkin. Ya'ni bunday paytda siz ijtimoiy tarmoqlarda o'z akkauntingizni ochishingiz va boshqalarga bilim ulashishingiz mumkin. Bu orqali sizda dars o'tish metodikasi shakllanadi, tajriba orttirasiz va ommaga tanilasiz. Moddiy mablag'ga ega bo'lishingiz ham foydadan xoli emas.

Internetdan faqat bilim berish va bilim olish uchun foydalanish mumkinmi deysizmi? Yo'q, albatta. Misol uchun siz o'z biznesingizni boshlash arafasidasiz. Bunday vaziyatda ham onlayn xarid orqali o'z marketing rejangizni amalga oshira olasiz. Bilamizki hozirda kartadan kartaga pul o'tkazish juda oson va tez bajariladigan bo'ldi. Bu degani siz boshqa viloyat va respublikalar bilan ham tovar ayirboshlashingiz mumkin degani. Hozirda uyda o'tirgan holda xohlagan mahsulotimizni sotib olishimiz mumkin. Biz xohlagan tovarni uyimizgacha keltirib berilishi barcha uchun qulay. Ayniqsa, 2019-yildan O'zbekistonda karantin choralari ko'rilganligi sababli onlayn bizneslar va onlayn xaridlar ancha ommalashdi. O'zbekistonda ham internet orqali savdo asta-sekin rivojlanib bormoqda.

Ko'rib turganingizdek, internetdan to'g'ri yo'lda foydalanish orqali siz tez fursatda o'z ishingizning lideri bo'lishingiz, shubhasiz. Ammo tanganing ikki tomoni bo'lganidek, internetning ham salbiy tomonlari mavjud. Avvalo, biz o'zimizda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz lozim.

Bugungi kunda yoshlarimiz e'iborini o'ziga allaqachon jalb qilib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlardan biri bu "Tik-tok" platformasidir. Bu platforma bir necha oy oldin O'zbekiston hududida bloklab qo'yilgani ham bekorga emas. Hali maktab yoshiga yetmagan bolalar ham ko'chada o'rtoqlari bilan to'p tepib ko'cha changitish o'rniga "Tik-tok"da video ko'ryapti. Ba'zilar bo'lar-bo'lmas videolar olib pul ishlayotgan bir paytda bizning yoshlarimiz tobora internetning quliga aylanib bormoqda. Turli xil internet-kafelarga serqatnov bolalar u yerlarga borib turli xildagi buzg'unchi ruhdagi ur-sur o'yinlarni tomosha qilayotgani yoki hashamatli kutubxonalarga tekin wifi xizmatidan foydalanayotgani qaysidir ma'noda fikrimizning dalilidir. Yoshlarimiz bu holda voyaga yetishi jamiyat uchun achinarli holatdir. Nima emish texnologiyalar asri emish. Bizdan oldin o'tib ketgan ajdodlarimiz davrida texnologiya rivojlanmagan, ammo ne ko'z bilan qaraylikki aynan bugun shu ajdodlarimiz nomi bilan gerdayib yuribmiz. Har narsada me'yor bo'lganidek internetdan foydalanishning ham o'z me'yor va talablari mavjud.

Bundan tashqari, bilamizki internetning ma'naviy va moddiy zararlari mavjud. Ma'naviy zararga misol qilib quyidagicha vaziyatni olishimiz mumkin. Misol uchun, siz ijtimoiy tarmoqlarda ayrim saytlarga o'z su'ratingizni va shaxsiy ma'lumotlaringizni joyladingiz. Albatta, siz buni faqat yaqinlaringizga yoki hech kimga ko'rinmaydi deb o'ylagan edingiz. Lekin siz ehtiyotsizlik bilan har xil havolalar orqali turli xildagi saytlarga qo'shilib qolgan bo'lishingiz va sizning shaxsiy ma'lumot va su'ratlaringiz keng ommaga ko'rinib qolishi mumkin. Shaxsiy hayotingizga oid bo'lgan bu xildagi axbarotlar boshqalarga oshkor bo'lishi sizning obro'yingizga putur yetkazishi, shubhasiz. Bu holat boshqalarning ongida sizga nisbatan salbiy fikr uyg'otishi turgan gap. Bu holni biz internetning bizga yetkazgan ma'naviy zarari deb aytishimiz mumkin.

Internetning moddiy zararlari haqida gapiradigan bo'lsak, unga quyidagi vaziyatni misol qilib olishimiz mumkin. Siz telegram ijtimoiy tarmog'i orqali onlayn xaridni amalga oshirmoqchisiz, mahsulotni sotib olishingiz uchun sizdan oldin plastik karta orqali mahsulotning pulini yuborishni so'rashdi. Siz esa aytilgan summa va boshqa shaxsiy ma'lumotlaringizni sotuvchiga yubordingiz. Lekin siz sotuvchini yaxshi tanimaysiz va ular sizga mahsulot jo'natishmaydi va siz ularga o'lja bo'lib qolasiz. Yoki ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan "Kontakt qo'shing va pul oling" kabi iboralar barchamizni o'ylantirayotgani tabiiy. Siz telegram tarmog'i orqali noma'lum bir guruhga odam qo'shasiz va pul yutib olmoqchi bo'lasiz. Guruh egalari sizga plastik kartangizni tashlashni va ular sizga pul o'tkazib berishlarini aytishadi. Bu holatga siz beixtiyor rozi bo'lasiz, ammo ular pul o'tkazish o'rniga sizning kartangizdagi pulni yechib olishadi. Ming afsuski, hozirda bu kabi muammolar hayotimizda tez-tez uchrab turmoqda. Shu va shunga o'xshash vaziyatlarni biz internetning moddiy zarari deb ayta olamiz.

Yuqorida tilga olingan noxush holatlarning oldini olish uchun internetdan xavfsiz foydalanish yo'l-yo'riqlarini bilish kerak. Virus va zararli dasturlar hujumidan saqlanish uchun, odatda, maxsus himoya vositalaridan foydalanish kerak. Internetdan to'g'ri yo'lda va yaxshi maqsadlarda foydalanish uchun bularni bilishimiz zarur.

"Internetsiz hayot". Bu jumlaning eshitganda ko'pchilik insonning eti junbushga kelishi aniq. Bugungi texnologiyalar asrida internetsiz, kompyuter va smartfonlarsiz hayotni tasavvur etish imkonsiz. Bir paytlar kompyuter va internet odamlar orasida hozirgi kabi ommalashmagan edi. Turli xil internet o'yinlari, saytlar paydo bo'la boshlagach biz yangi hayotga chiqdik. Umuman olganda, hayotimizda tub burulishlar yasadi. "Counter", "Mario", "PUBG" kabi onlayn o'yinlar, "Instagram", "Tik-tok", "Facebook", "Telegram" kabi ijtimoiy tarmoqlar ko'pgina odamlarni o'z domiga tortmoqda. Endilikda bolalar ko'chada to'p tepib ko'cha changitish o'rniga vaqtlarini har xil internet o'yinlariga sarflayaptilar. Endi ko'chalarda yog'och tayoqlar bilan mushketyor o'ynayotgan bolalarni uchratmayapmiz. Bizning hayotimizda internet

boshqa ma'lumot manbalarini ko'ngil ochish usullariga almashtira boshladi. Nega endi bolalar ko'cha changitib o'ynashlari kerak? Axir endilikda ular internet orqali koinotning egasi bo'lishlari, o'zlarining virtual uylariga ega bo'lish imkoniga ega bo'lsalar. Vaqt, tovush tezligida shoshila boshladi. Kechagi bolalar ulg'ayishdi, endilikda ular kitoblar ustida ishlay boshlashdi, tuni bilan imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishdi. Bolalar o'zgardi, hayot ham o'zgardi. Texnologiyalar asta-sekin hamma narsani almashtirdi. Endi kutubxonalar bo'sh, barcha kitoblar kompyuter va smartfonlardan o'rin oldi. Internet orqali biz ko'pgina muammolarimizga yechim topdik. U orqali istalgan vaqtda videoqo'ng'iroqlar qilishimiz, turli xil xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishimiz mumkin.

Internet paydo bo'la boshladiki, virtuallashuv keskin rivojlana bordi. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi jonli muloqotni yo'qqa chiqardi. Hammasi butunlay o'zgardi. Endi biz to'g'ridan-tog'ri haqiqiy hayotda olib boriladigan jonli aloqadan zavq olishni to'xtatdik. Jamma narsa virtual olamda sodir bo'la boshladi. Ortiq yaqinlar bir-birlari bilan uchrashgan holda jonli muloqot qilishmayapti, bu orqali, albatta, insonlar orasidagi mehr-oqibat yo'qolib bora boshladi. Insonlar o'z his-tuyg'ularini dumaloq, sariq rasmlar orqali ifodalaydigan bo'lishdi. Haqiqiy hayotdagi suhbatlar keskin yo'qolib ketdi. Barcha narsalar virtual olamda ro'y bera boshladi. Odamlar o'z suratlari, videolari, o'z ichki fikrlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylay boshlashdi va insonlar bunga fikr va reaksiya bildirishlarini kutishdi. Kuzatuvchilar reaksiyalarini kuzatib borishdi. Lekin bu orqali necha ming yillik urf-odatlarimiz yo'qola boshladi. Qanday achinarli holat, shunday emasmi? Haqiqiy inson milliy qadriyatlarini unutmasligi va shu bilan birgagina zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Virtuallashuv jarayoni ayniqsa, o'smirlar orasida juda ko'p kuzatiladi. Internet tarmog'idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog'liq muhim aniq dalillarga ega bo'lishida har tomonlama qulayligi va vaqtning tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli internet axbarotlaridagi ortiqcha ma'lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlari salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Bu hol izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushohada va xotiraning o'tkirlik darajasining susayishiga sabab bo'lmoqda. Har doim taraqqiyot rivojlanishini qadimgi zamonlardan buyon xohlab kelamiz, biroq har bir narsada oqilona chegara, muvozanat bo'lishi kerak. Men ham axbarot asrining eng ilg'or odamlariga o'xshashga intilib internetdan tez-tez foydalanaman. Lekin buning sababi kimlar bilandir behuda suhbat qurish, pulni sovuruvchi o'yinlar o'ynash, shunchaki vaqtni o'tkazish emas, balki bilmaganlarimni o'rganish, izlanish va yangi ma'lumotlarni topishdir. Ayrim tengdoshlarimiz borki, xalqaro tarmoqlarda o'z axloqsizliklarini bemalol ko'rsatishaveradi. Bu ham madaniyatimizning oyoq osti bo'layotganidan darak beradi.

Yoshlar orasidagi virtuallashuv omillarini yuqorida ko'rib o'tdik, endi uning sabablari haqida gapirsak. Buning birinchi sababi bu ota-onalarning beparvoligi.

Hozirda ota-onalar bolalariga maktab paytidan so'ngi rusumdagi telefonlar olib berishmoqda. Bu, albatta xato. Maktab yoshidagi bolalar ayni izlanish, yangiliklar topish yoshida bo'lishadi. Aynan shu paytda ularning xotiralari o'tkirlik darajasi katta yoshdagilardan ancha o'tkirroq bo'ladi. Lekin ular vaqtlarini telefonda, virtual olamda o'tkazib xotiralari o'tkirligini pasaytirishmoqda. Ular shu yoshda kutubxonalardan beri kelmasliklari kerak, aslida. Kerakli ma'lumotni kitoblardan izlaganda ko'zimiz beixtiyor boshqa ma'lumotlarga ham tushadi va shu orqali biz yanada ko'p ma'lumotga ega bo'lamiz.

Yoshlar orasida virtuallashuvni yo'qotish uchun, albatta unga yechim topish kerak. Mening fikrimcha, bu muammoni yechish uchun, avvalo, bolalarni kitob o'qishga jalb qilishimiz kerak. Har xil kitob o'qib sovg'a yutib olish kabi tanlovlar o'tkazish kerak. Fikrimcha, bunday tanlovlarda g'oliblar uchun sovringa kompyuter, telefon, planshetlar o'rniga 50-100 tacha kitob qo'yish foydali bo'ladi. Bundan tashqari, maktab, kollej va universitet talabalari o'rtasida virtuallashuv oqibatlari aks etgan sahna ko'rinishlari, ibratli ko'rsatuvlar tashkil ettirilishi kerak. Bu ham yoshlarning onggiga ijobiy ta'sir qilishi, shubhasiz.

Mening ushbu maqolani yozishdan maqsadim tanlovda g'olib bo'lish emas, balki mening fikrim keng jamoatchilik orasida targ'ib qilinishi va buning yoshlar uchun zarracha bo'lsa ham foydasi tegishi edi. Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, har bir narsani o'z o'rnini va ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda ishlatish hech qachon zarar keltirmaydi. Yuqorida aytganimdek, tanlov o'z qo'limizda.

Keling do'stlar, barchamiz eng, avvalo, o'zimizda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantiraylik! Tanqid va cheklovlarga amal qilgan holda farovon jamiyat quraylik. Zero, kelajak yoshlar qo'lida!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov, A. O'smirlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologim imkoniyatlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.*, 2021-1(5), 433-438.
2. Юсупова, О. С., & Умирова, С. М. Отношение формы и содержания в художественно-эстетическом выражении. *Научный вестник scientific reports*, 127.
3. Utanova, U. "Kompyuter axborot madaniyati"- submadaniyatning vujudga kelishi. *Камолиддин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти ахборотномаси илмий-амалий журнали.*, 2021-5(03), 62-66.
4. Mohinur, D. Use of mobile and computer games as a psychological tool to shape student learning processes. *Academicia Globe: Inderscience Research.*, 2021- 2(03), 10-13.
5. Otabaeva, F. T. Technologu using the case-study method in the study of computer graphics. *Scientific Bulletin of Namangan State University.*, 2019- 1(12), 348-355.